

**XORIJIY TILNI O‘QITISHDA INNOVATION METODLARDAN  
FOYDALANISH MUAMMOLARI  
PROBLEMS OF USING INNOVATION METHODS IN TEACHING A  
FOREIGN LANGUAGE  
ПРОБЛЕМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ПРИ  
ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ**

**Gafurova Nodira Ravshanovna**

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

[nodiranodira0505@gmail.com](mailto:nodiranodira0505@gmail.com)

**Jo‘raholdorova Shukronaxon**

Chet tillari fakulteti, 23.107-guruh talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xorijiy tilni o‘qitishda innovation metodlardan foydalanish muammolari o‘rganilgan. Bundan tashqari, zamonaviy o‘qitish tizimi hamkorlikda o‘qitish va axborot texnologiyalarni internet tizimidan foydalanib, loyiha metodikasini qo‘llashni mazmunan ochib bergan. **Kalit so‘zlar:** farzand, yetuk inson, ta’lim, tarbiya, metod, metodika, chet tili, muloqot, ruxiyat, yosh, bola, baxs-munozara, til, pedagog, dars, o‘yin, samara, rivojlanish.

**Abstract:** This article examines the problems of using innovative methods in teaching a foreign language. In addition, the modern education system has meaningfully revealed the application of the project methodology using the Internet system of cooperative education and information technology.

**Key words:** child, mature person, education, training, method, methodology, foreign language, communication, spirit, age, child, discussion, language, pedagogue, lesson, game, effect, development.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются проблемы использования инновационных методов в обучении иностранному языку. Кроме того, в современной системе образования значимо раскрыто применение проектной методики с использованием Интернет-системы кооперативного обучения и информационных технологий.

**Ключевые слова:** ребенок, зрелая личность, воспитание, обучение, метод, методика, иностранный язык, общение, дух, возраст, ребенок, дискуссия, язык, педагог, урок, игра, эффект, развитие.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng ko‘pgina sohalarda katta o‘zgarishlarga erishib kelmoqda. Boshqa sohalar bilan birqatorda ta‘lim sohasida erishilayotgan yutuqlar ham buning namunasidir. O‘zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat va fuqorolik jamiyati qurish yo‘lini tanlagan va amalga oshirib kelmoqda. Mamlakatimiz taraqqiyotining muhim sharti kadrlarni tayyorlash tizimining mukammal bo‘lishi, zamonaviy iqtisod, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalar asosida rivojlanishi hisoblanadi. Uzluksiz ta‘lim tizimida Oliy o‘quv yurtlarida chet tillarni o‘qitish masalalari zamonaviy ilg‘or texnologiyalardan foydalangan holda amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi ko‘zda tutiladi. Oliy o‘quv yurtlarida chet tillarni o‘qitish muammolari chuqur o‘rganilib kelinmoqda. Har bir sanoat sohasiga mos ravishda, ushbu sohaga yo‘nalgan holda metodlardan foydalanish mumkin. Oliy o‘quv yurtlarida chet tilini o‘qitishda pedagogik texnologiyalar va information texnologiyalarni qo‘llash orqali maqsadga erishish mumkin. Zamonaviy o‘qitish tizimi hamkorlikda o‘qitish va axborot texnologiyalarni internet tizimidan foydalanib, loyiha metodikasini qo‘llashni talab etadi. Chet tillarni o‘qitishdan maqsad talabalarda chet tilini amaliy tarzda o‘zlashtirish va ularda kommunikativ madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat. Bunda o‘qituvchining vazifasi talabalarda chet tilini o‘rgatish jarayonida tilni puxta egallashlari va ularning ijodiy tafakkur faoliyatini faollashtirishdan iborat. Ta‘lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan ishtirokchilarning faolligi, aniqmaqsad sari intilishlari va intizomli bo‘lishlariga bog‘liq. O‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish hamda uni tashkil etish uchun sarflangan kuch vaqtga nisbatdan ancha ko‘p bo‘ladi.

Texnologik vositalardan so‘z bilan tushuntirish samarali bo‘lmagan amaliy harakatlarni ko‘rgazmali tarzda namoyish etish zarurati yuzaga kelganda foydalaniladi bu esa chet tilini o‘rgatishda qulay vositadir. Chet tilida virtual muloqot

o‘qituvchiga o‘rganilayotgan fan yoki bo‘limda yoritilayotgan bilim asoslari orasidan eng muhimlariga e‘tiborni jalb etish imkonini beradi. Auditoriya bilan bevosita muloqot qilish, talabalarning chet tilidan o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasiga ko‘ra ma‘ruza rejasini o‘zgartirishi mumkin bo‘ladi. Chet tilida talabalarning o‘zaro munosabatlari va ular tomonidan berilayotgan savollarning inobatga olinishi ta‘lim jarayonining samaradorligini ta‘minlashda o‘ziga hos ahamiyat kasb etadi. Chet tilini o‘rgatish jarayonida yangi innovatsion pedagogic texnologiyalardan foydalanish muhim masalalardan biridir. Umuman, xorijiy tilda o‘rgatish ham qiziqarli ham jiddiy jarayondir. Xorijiy tilni o‘qitishda o‘quv o‘yinlari va o‘yinli mashqlar bilan bir qatorda kompyuter orqali o‘qitish rivojlanmoqda. Agar xorijiy tilni o‘qitishda bir auditoriyaga bir nechta kompyuter o‘rnatilib internetga ulangan bo‘lsa, ko‘zlangan maqsadga tezroq erishiladi.

Bugungi kunda chet tillarni o‘qitishda yangi innovatsion ta‘lim texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday texnologiyalar o‘qituvchilar oily o‘quv ta‘limda joriy etilib o‘qitilmoqda. Bundan tashqari multimedia dasturlari va electron darsliklar yaratilmoqdaki, ular rangli, turli grafikali texnologiyalardan foydalanuvchi kompyuter texnologiyalariga asoslangan darsliklardir. Multimedia dasturlari interfaol usuldagi ishlash imkonini beradi va yuqori bosqichlardagi talabalarning tinglab tushunish va gapirish malakalarini oshiradi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘XATI:**

1. Ravshanovna, G. N. (2022). THE STUDY OF THE MEANING OF THE WORD TOLERANCE IN OTHER LANGUAGES. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 3, pp. 8-9).
2. Ravshanovna, G. N., & Ahmadjanovna, E. T. U. (2021). Methodological characteristics of formation of tolerance skill pupils in primary school. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 1623-1628.

3. Ravshanovna, G. N. (2021). Methods of development tolerance skills pupils in primary school. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1221-1224.
4. Ravshanovna, G. N. (2022). TOLERANCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS PEDAGOGICAL MODEL OF SKILLS DEVELOPMENT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 95-96.
5. Ravshanovna, G. N. (2020). The Main Directions Of Developing Tolerance Skills Of Primary School Pupils. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 2020.
6. Ravshanovna, G. N. (2023). BOSHLANG ‘ICH TA’LIM JARAYONIDA TOLERANTLIKNI TARBIYALASH USULLARI VA VOSITALARI. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 975-980.
7. Ravshanovna, G. N. (2019). TRAINING THE PRIMARY SCHOOL TEACHERS TO INNOVATION ACTIVITIES IN HIGHER EDUCATION SYSTEM. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).
8. Ravshanovna, G. N., & Anvarovna, Y. D. (2022). INGLIZ VA OZBEK TILLARIDAGI TURIZMDAGI ATAMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLARI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 3, pp. 14-17).
9. Teacher, G. N. R. E. THE IMPORTANCE USAGE OF EXTENSIVE READING Gafurova NR (Republic of Uzbekistan) Email: Gafurova339@scientifictext.ru. *UIF-2022*, 8.
10. Qizi, O. S. S., & Ravshanovna, G. N. (2022). The scope of neologisms in science fiction. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(5), 1149-1151.
11. Гафурова, Н. П. (2019). Use of modern technologies in the foreign language lessons in primary education. *Молодой ученый*, (15), 256-258.

12. Ravshanovna, G. N. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARIDA KO ‘P MADANIYATLI TA’LIMNING MOHIYATI, MAZMUNI VA BAG ‘RIKENGLIK SHAKLLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(19), 967-971.